

# Qo'shma gap

## QO'SHMA GAP

1. Gaplar tuzilishiga ko'ra (Grammatik asoslar miqdoriga ko'ra) 2 ga bo'linadi:

a) sodda gaplar b) qo'shma gaplar

2. Qo'shma gaplar sodda gaplardan quyidagi jihatdan farq qiladi:

a) sodda gaplarning grammatik asosi bitta – qo'shma gaplarniki ikkidan ortiq;

b) sodda gaplar 1 ta kesimlik belgisiga, 1 ta shakllangan kesimga ega bo'ladi – qo'shma gaplarda esa 2 dan ortiq kesimlik belgisi bo'ladi;

c) sodda gaplar ma'lum bir fikrni ba'zan qo'shimcha ravishda his hayajonni ifodalaydi – qo'shma gaplar esa murakkabroq fikrni anglatadi;

3. Demak gaplarni sodda va qo'shma gaplarga ajratishda kesimlik belgisining miqdori asos boladi.

4. Qo'shma gap 2 yoki undan ortiq sodda gaplarning o'zaro Grammatik va mazmuniy munosobatidan tashkil topadi. Bunda:

- qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarning **grammatik** munosobati deganda shu sodda gaplarning ma'lum bir grammatik vositalar yordamida bog'lanishi tushuniladi.

- qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarning **mazmuniy** munosobati deganda esa qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarning mazmunan muvofiqligi tushuniladi.

M: qish keldi **va** o'rik gulladi – bu yerda **va** bog'lovchi vosita hisoblanadi, mazmunan xato.

5. Qo'shma gapni tashkil etgan sodda gaplar bilan alohida qo'llangan sodda gaplar teng emas:

- alohida qo'llangan sodda gaplar **grammatik, mazmun va ohang** tugalligiga ega bo'ladi.

- qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarda esa grammatik, mazmun va ohang tugalligi qo'shma gap oxirida namoyon bo'ladi. Shuning uchun qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar alohida mustaqil qo'llanilgan gap emas balki bir umumiy gapning qismi hisoblanadi.

## QO'SHMA GAP QISMLARINI BOG'LOVCHI VOSITALAR

1. Qo'shma gapni tashkil etgan sodda gaplar qo'shma gap qismlari deb nomlanadi.

2. Qo'shma gap qismlarini bog'lash uchun xizmat qiladigan vositalar **bog'lovchi vositalar** deyiladi.

3. Qo'shma gap qismlarini bog'lash uchun quyidagi vositalar xizmat qiladi:

a) **bog'lovchilar** – teng bog'lovchilar va ergashtiruvchi bog'lovchilar;

b) **bog'lovchi vazifasidagi vositalar:**

- bog'lovchi vazifasidagi yuklamalar

- bog'lovchi vazifasidagi **bo'lsa, esa, deb** so'zlari

- nisbiy so'zlar

- ko'makchili qurilmalar: **shuning uchun, shu sababli, shu tufayli, shu bois**

- fe'lning -sa shart mayli qo'shimchasi

c) **ohang**

4. Qismlarining qanday bog'lovchi vositalar yordamida bog'lanishiga ko'ra qo'shma gaplar 3 guruhga bo'linadi:

a) **bog'langan qo'shma gaplar**

b) **ergashgan qo'shma gaplar**

c) **bog'lovchisiz qo'shma gaplar**

## I. BOG'LANGAN QO'SHMA GAPLAR

1. Qismlari teng bog'lovchilar yoki teng bog'lovchi vazifasidagi vositalar yordamida birikgan qo'shma gaplar **bog'langan qo'shma gaplar** deyiladi.

2. Bog'langan qo'shma gap qismlari o'zaro quyidagi vositalar bilan bog'lanadi:

-teng bog'lovchilar

-teng bog'lovchi vazifasidagi yuklamalar

-teng bog'lovchi vazifasidagi bo'lsa, esa so'zlari yordamida

3. Bog'langan qo'shma gapga xos xususiyatlar:

a) qismlari yani tarkibidagi sodda gaplar o'zaro teng aloqada bo'ladi


b) ular orasida tobe hokimlik bo'lmaydi

c) bosh gap, ergash gap atamalari ishlatilmaydi

d) tarkibidagi sodda gaplar biri ikkinchisini aniqlab, izohlab kelmaydi

e) bir gapdan boshqasiga savol berilmaydi

4. Bog'langan qo'shma gaplarning qolipi quyidagicha bo'ladi:



5. Qismlarning qanday bog'lovchi vositalar yordamida bog'lanishiga ko'ra bog'langan qo'shma gaplar o'z ichida 4 guruhga bo'linadi.

a) **Biriktiruv** bog'lovchilari yordamida bog'langan qo'shma gap

b) **Zidlov** bog'lovchilari yordamida bog'langan qo'shma gap

c) **Ayiruv** bog'lovchilari yordamida bog'langan b qo'shma gap

d) **bo'lsa, esa so'zlari** yordamida bog'langan b qo'shma gap

### 1. Biriktiruv bog'lovchilari yordamida bog'langan qo'shma gap

1. Bunday qo'shma gap qismlari o'zaro quyidagi vositalar yordamida bog'lanadi:

a) va, hamda biriktiruv bog'lovchilari yordamida

- Novdalarni bezab g'unchalar, Tongda aytdi hayot otini

- **Va shabada** qurg'ur ilk sahar, Olib ketdi gulning totini

b) biriktiruv bog'lovchisi vazifasidagi **-u, -yu, -da yuklamalari** orqali bog'lanadi

- Gulchehra piq etib kuldi-da, cho'zilib tugunini oldi.

c) Oliy ta'limda yuqoridagilardan tashqari biriktiruv bog'lovchisi vazifasidagi yakka qo'llangan **ham yuklamasi** ham ko'rsatiladi.

- Ishim to'g'rilanib ketdi ham yerim o'zimga qoldi.

2. Bunday qo'shma gaplar orasida quyidagicha ma'no munosabati bo'ladi:

a) qismlari orasida payt munosabati bo'ladi ya'ni bir paytda yoki ketma- ket sodir bo'lgan voqealar ifodalanadi

- Eshik ochildi va Qalandarovning ozg'in yuzi ko'rindi

b) qismlar orasida sabab natija munosabati ham ifodalanishi mumkin. Bunday holda qo'shma gapning 2- qismi oldidan natija so'zini qo'llash mumkin.

- Anor so'zlar va(natijada) Zaynab qalbi Tol bargiday dir-dir qaltirardi.

c) -u, -yu, -da yuklamalari ham biriktiruv bog'lovchilari bajargan vazifani bajaradi. Bu yuklamalar bilan bog'langanda asosiy mazmundan tashqari tezlik va kutilmaganlik uzluksiz yuz berayotgan voqea hodisalar, sabab kabi mazmun ham ifodalanadi.

3. Bunday qo'shma gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi:

a) Agar qismlari va, hamda biriktiruv bog'lovchilari ham yuklamasi yordamida bog'langan bo'lsa qismlar orasida hech qanday tinish belgisi qo'yilmaydi.

b) Agar qismlari bog'lovchi vazifasidagi **-u, -yu, -da yuklamalari** yordamida bog'langan bo'lsa bu vositalardan keyin vergul qo'yiladi.

## **2. Zidlov bog'lovchilari yordamida bog'langan qo'shma gap**

1. Bunday qo'shma gap qismlari o'zaro quyidagi vositalar yordamida bog'lanadi:

a) ammo, lekin, biroq, balki zidlov bog'lovchilari bilan bog'lanadi

-Insonni tabiat vujudga keltiradi, **ammo** jamiyat uni kamol toptiradi

b) Zidlov bog'lovchisi vazifasidagi **-u, -yu, -da yuklamalari** yordamida bog'lanadi

-Gap ko'p-**u**, ko'mir oz

2. Bunday qo'shma gaplar orasida quyidagicha ma'no munosabati bo'ladi:

a) zidlik manosi

b) **-u, -yu, -da yuklamalari** zidlash, ketma-ketlik munosabati borligini bildiradi. Bazan zidlikni kuchaytirish uchun 2 ta zidlov bog'lovchisi yoki zidlov bog'lovchisi, zidlov bog'lovchisi vazifasidagi **-u, -yu, -da yuklamalari** bilan birga qo'llanishi mumkin

-Mahalla hali obod bo'lganich yo'g'**-u, lekin** odam ruhi bor. Bu yerda mano kuchaygan

3. Bunday qo'shma gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi:

a) Zidlov bog'lovchilari qo'shma gapning 2- qismi boshida keladi bulardan oldin vergul qo'yiladi.

b) Zidlov bog'lovchisi vazifasidagi **-u, -yu, -da yuklamalari esa** qo'shma gap 1- qismining oxirida keladi va ulardan keyin vergul qo'yiladi.

## **3. Ayiruv bog'lovchilari yordamida bog'langan qo'shma gap**

1. Bunday qo'shma gap qismlari o'zaro quyidagi vositalar yordamida bog'lanadi:

a) yakka holda ham, takror holda ham qo'llanishi mumkin bo'lgan yo, yoki ayiruv bog'lovchilari yordamida.

- Ilgari ham havo shunday qizirmidi **yo** bu yil issiqroqmi.

b) faqat takror qo'llanuvchi goh..-goh, bazan..-bazan, dam..-dam, bir..-bir.. ayiruv bog'lovchilari yordamida

-Uzoqdan **goh** ko'm-ko'k o't bosib ketgan yaylovlar ko'rinadi, **goh** qop-qorongi dalalar ko'zgatashlanadi

c) Oliy ta'limda yohud, yoinki ayiruv bog'lovchilari ham ko'rsatiladi.

2. Bunday qo'shma gaplar orasida quyidagicha ma'no munosabati bo'ladi:

a) Agar qismlari yo, yoki, yohud, yoinki, ayiruv bog'lovchilari yordamida bog'lansa voqea hodisalarning faqat biri sodir bo'lishi ifodalanadi ya'ni voqea hodisaning biri tasdiqlanadi 2-si inkor etiladi.

b) Agar qismlari faqat takror qo'llanuvchi goh..-goh, bazan..-bazan, dam..-dam, bir..-bir.. kabi bog'lovchilar yordamida bog'lansa voqealarning galma-gal, navbatma-navbat sodir bo'lishi ifodalanadi.

3. Bunday qo'shma gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi:

a) Agar qismlari yakka qo'llanadigan ayiruv bog'lovchilari yordamida bog'lansa qismlari orasida hech qanday tinish belgisi qo'yilmaydi.

b) Agar qismlari takror qo'llanuvchi ayiruv bog'lovchilari yordamida bog'lansa 2- qismida oldin vergul qo'yiladi.

Eslatma:

1. Teng bog'lovchilarning barchasi bog'langan qo'shma gap qismlarini bog'lashdan tashqari sodda gap tarkibidagi uyushiq bo'laklarni bog'lash uchun xizmat qiladi. Bu 2 holatni farqlay olish kerak.

Nafisa **va** men hovlini supirib, ovqatga unnadik. -uyushiq bo'laklarni bog'lagan  
Nafisa hovlini supirdi **va** men ovqatga unnadim - sodda gaplarni bog'lagan

#### **4. Bo'lsa, esa so'zlari**

##### **yordamida bog'langan qo'shma gap**

1. Bo'lsa, esa bog'lovchi vazifasidagi so'zlari bog'langan qo'shma gap qismlarini bog'lash bilan birga ular o'rtasida qiyoslash zidlash munosabatlari mavjudligi ifodalaydi.

2. Bo'lsa, esa bog'lovchi vazifasidagi so'zlari qo'shma gapning 2- qismida qiyoslanuvchi bo'lakdan keyin keladi.

-Egrilik insonni qabohatga yetaklaydi, to'g'rilik **bo'lsa** uni saodatga boshlaydi.

Bu yerda qiyoslash va zidlash munosabati mavjud

-Aql eskirmas kiyim, bilim **bo'lsa** tuganmas buloqdir

Bu yerda faqat qiyoslash munosabati ifodalanyapti.

3. Bunday qo'shma gaplarda orasiga vergul qo'yiladi.

4. Bog'langan qo'shma gap qismlari orasida bog'lovchi vazifasida keladigan **bo'lsa** so'zini, **-sa** shart maylini olgan **bo'l** felidan farqlashimiz kerak.

-Haqiqiy do'sting **bo'lsa**, hayot so'qmoqlarida adashmaysan. **-ergashgan qo'shma gap**

-Aql ko'pga yetkazadi, hunar **bo'lsa** insonni ko'kka ko'taradi. **- bog'langan qo'shma gap**

5. Litsey darsligida **bo'lsa, esa** qatorida **yo'qsa** bog'lovchi vazifasidagi so'zi ham qo'llanadi.

Eslatma:

1. Oliy ta'lim darsliklarida bog'langan qo'shma gapning **4-turi sifatida inkor munosabatli bog'langan qo'shma gaplar** ham ko'rsatiladi. Bunday qo'shma gap qismlari o'zaro takror qo'llanuvchi **na...na...** vositasi yordamida bog'lanadi.

2. Bunday qo'shma gaplarda tarkibidagi har 2 sodda gapdan anglashilgan mazmun voqea hodisa inkor etiladi. Ular orasida vergul qo'yiladi.

-**Na** biror uyning mo'risidan tutun chiqadi, **na** biror daraxt ko'rinadi.


3. **na...na** inkor bog'lovchisi bog'langan qo'shma gap qismlarini yoki uyushiq bo'laklarni bog'lash uchun xizmat qiladi. Bularni farqlash kerak.

-Seni bir dam xafa qilmoqqa **na** haqqim bor, **na** huquqim bor. -**sodda gaplarni bog'layapti**  
- Seni bir dam xafa qilmoqqa **na** haqqim , **na** huquqim bor. - **uyushiq kesmlarni bog'layapti**

## II. ERGASHGAN QO'SHMA GAPLAR

1. Qismlari ergashtiruvchi bog'lovchilar yoki shunday bog'lovchi vazifasidagi vositalar yordamida tobe bog'langan qo'shma gaplar **Ergasggan qo'shma gaplar** deyiladi.
2. Ergashgan qo'shma gaplar tarkibida nechta gap bo'lishidan qat'iyy nazar doimo 2 qismdan iborat bo'ladi.
  - a) hokim qism(bosh gap)
  - b) tobe qism (ergash gap)
3. Bunday qo'shma gaplar ergash gapning bosh gapga tobelanishidan hosil bo'ladi.
4. Mazmuni izolanayotgan gap **bosh gap** hisoblanadi.
5. Bosh gapning mazmunini izohlayotgan va ko'pincha tobe shaklda turgan qism **ergash gap** deyiladi.
6. Hamma vaqt bosh gapdan ergash gapga savol beriladi. Ergash gap bosh gap orqali berilayotgan so'roqqa javob bo'ladi.
7. Yozuvda ergash gap bilan bosh gap orasida doimo vergul qo'yiladi.

8. Ergash gap bosh gapdan oldin yoki keyin kelishi mumkin. Shundan kelib chiqib ergashgan qo'shma gaplarning qolipi quyidagicha bo'ladi.



9. ergashgan qo'shma gaplar tuzulishiga ko'ra so'z birikmasiga o'xshaydi, ya'ni:
  - a) so'z birikmasi ham ergashtiruvchi qo'shma gaplar ham 2 qismdan yani tobe hokim qismdan iborat bo'ladi.
  - b) ikkalasida ham komponentlar tobelanish munosabatigakirishadi
  - c) ikkalasida ham tobe qism hokimning so'rog'iga javob bo'ladi
  - d) ikkalasida ham tobe qism hokimning manosini aniqlab izohlab keladi
  - e) ikkalasining farqi shundaki so'z birikmasida so'zlar tobe hokimlik munosabatiga kirishadi gaplarning tobe hokimlik munosabati natijasida esa ergashgan qo'shma gaplar hosil bo'ladi.
10. Ergashgan qo'shma gaplarda ergash gap bosh gapga quyidagilar bilan bog'lanadi:

### Vositalar:

- a) ergashtiruvchi bog'lovchilar-**sabab, maqsad, shart, qiyoslash**
- b) ko'makchili qurilmalar- **shuning uchun, shu tufayli, shu sababli, shu bois**
- c) bog'lovchi vazifasidagi so'zlar- **deb** so'zi
- d) bog'lovchi vazifasidagi yuklamalar- **ki**
- e) nisbiy so'zlar
- h) felning **–sa shart mayli** shakli



## I. Ergashtiruvchi bog'lovchili ergashgan qo'shma gaplar

1. Bunday gaplarda ergash gap bosh gapdan ifodalangan mazmunning sababini maqsadini, sharti yoki qiyosini bildiradi.

2. Bunday qo'shma gaplarda ergash gap, bosh gapga ergashtiruvchi bog'lovchilar ya'ni

a) sabab bog'lovchilari- **chunki, negaki, zero, zotan,zeroki**

b) maqsad bog'lovchisi- **toki**

c) shart bog'lovchilari- **Agar, gar, agarda, basharti, mobodo**

d) qiyoslash-chog'ishtiruv bog'lovchilari yordamida bog'lanadi- **xuddi, g'oyo, g'oyoki**

### A. Sabab bog'lovchilari yordamida bog'langan ergashgan qo'shma gap

1. Sabab bog'lovchilariga - **chunki, negaki, zero, zotan,zeroki** kabi ergashtiruvchi bog'lovchilari kiradi. Bu bog'lovchilar ergash gapning boshida qo'llanadi, bunda ergash gap bosh gapdan keyin keladi.

-Gapni cho'zma, **chunki** hayot qisqadir – **sabab holi ergashgan qo'shma gap**

2. yozuvda **chunki, negaki, zero, zotan,zeroki** bog'lovchilaridan oldin vergul qo'yiladi

3. Sabab bog'lovchilariga **zero, zotan,zeroki** kabi so'zlar ham kiradi bunda ko'tarinkilik bor.

### B. Maqsad bog'lovchilari yordamida bog'langan ergashgan qo'shma gap

1. Maqsad bog'lovchisi-**toki** bo'lib u ham ergash gap boshida keladi bunda ham ergash gap bosh gapdan keyin keladi. Yozuvda maqsad bog'lovchisidan oldin vergul qoyiladi.

-Bu masalani sinfda keng muxokama qilamiz, **toki** boshqa qaytarilmasin.-**maqsad holi ergashgan qo'shma gap**

### C. Shart bog'lovchisi yordamida bog'langan ergashgan qo'shma gap

1. Shart bog'lovchilariga- **Agar, gar, agarda, basharti, mobodo** kabi so'zlar kiradi.

2. Shart bog'lovchilari ham ergash gapning boshida keladi. ammo bunda ergash gap bosh gapdan oldin keladi.

-**Agar** yolg'iz bo'lsang, hamdam kitobdir.-**Shart holi ergashgan qo'shma gap**

3. Shart bog'lovchilari juda ko'p hollarda mustaqil kesim shaklini hosil qiluvchi –sa shart mayli bilan birga keladi. Bunday paytda shart bog'lovchisi tushib qolishi mumkin.

- (Agar) Etiqod butun bo'lsa, naslimiz yoqolmagay.- **Shart holi ergashgan qo'shma gap**

4. Shart holi shart bog'lovchisi va –sa shart mayli yordamida bog'langan bo'lsa shart ma'nosi kuchaytirilgan bo'ladi. Kam holarda shart bog'lovchisi yordamida ergashgan qo'shma gaplarda ergash gap kesimi –sa shart mayli boshqa shaklda bo'lishi mumkin.

- **Gar** bo'ibti oshkor yopiq siring, bilgil ey oqil tiymapsan tiling.

### D. Chog'ishtiruv bog'lovchilari yordamida bog'langan qo'shma gap

“ZiyoMax o'quv kurslari [web: ziyomax.uz](http://web:ziyomax.uz) @ziyomax\_uz Umurov FERUZ Faxriddinovich (97)-303-70-07

1. Chog'ishtiruv bog'lovchilariga **xuddi, g'oyo, g'oyoki** so'zlari kiradi bu bog'lovchilar ham ergash gapning boshida keladi. Bunda ham ergash gap bosh gapdan keyin keladi
2. Yozuvda chog'ishtiruv bog'lovchilaridan oldin vergul qo'yiladi.  
-Misralarda so'zlar gavhar kabi yonadi, **go'yo** yangi ranglar, jilvalar bilan porlaydi. **-hol ergash gapli qo'shma gap (o'xshatish).**
3. Xuddi, go'yo, go'yoki so'zlari asli chog'ishtiruv yuklamalaridir. Ularning yuklama yoki bog'lovchi vazifasida kelganda farqlash kerak.  
- Qalbi go'yo bahor, yuzi **go'yoki** gul. - **bunda go'yoki yuklama vazifasida**  
-Yomg'ir tinmay quyur, **go'yoki** osmon dengizi g'alvirga aylangan edi. – **bunda bog'lovchi**

## II. Ko'makchili qurilmalar yordamida ergashgan qo'shma gap

1. Ko'makchili qurilmalarga **shuning uchun, shu tufayli, shu sababli, shu bois** kabi so'zlar kiradi.
2. Bunday qo'shma gaplarda ergash gap bosh gapda ifodalangan mazmunning sababini bildiradi.
3. Ko'makchili qurilmalar asosan hokim gap boshida keladi. Bunda ergash gap bosh gapdan oldin keladi.  
- Musofirlikka menda havas uyg'ondi, **shu sababli** uning sirlarini o'rganishga bel bog'ladim
4. Yozuvda **shuning uchun, shu tufayli, shu sababli, shu bois** ko'makchili qurilmalaridan oldin vergul qo'yiladi.

### Eslatma:

1. **shuning uchun, shu tufayli, shu sababli, shu bois** kabi ko'makchili qurilmalar ergashtiruvchi bog'lovchilarga-uning sabab bog'lovchilari turiga kiritilgan.

## III. "Deb" so'zi yordamida ergashgan qo'shma gap

1. "deb" so'zi yarim bog'lovchi yoki bog'lovchi vazifasidagi so'z sanaladi.
2. deb vositasi ergash gapning oxirida keladi bunda ergash gap bosh gapdan oldin keladi.
3. Yozuvda deb so'zidan keyin vergul qo'yiladi.
4. deb so'zi yordamida hosil bo'lgan qoshma gaplarda ergash gap bosh gapda ifodalangan mazmunning maqsadini bildiradi. Bunda:
  - a) Agar deb yarim bog'lovchisi buyruq va shart mayli kelasi zamon felidan keyin kelsa **maqsad ma'nosini** ifodalaydi. - Bolalar chiniqsin **deb**, turli musobaqalar o'tkazildi.
  - b) Agar deb yarim bog'lovchisi o'tgan zamon felidan keyin kelsa **sabab ma'nosini** ifodalaydi. – O'rtoqlarim kelish**di deb**, ko'chaga chiqdim.
5. deb yarim bog'lovchisi bilan hosil bo'lgan ergashgan qo'shma gaplarda ergash gapning kesimi ko'pincha **III shaxs buyruq maylidagi fel** bilan ifodalanadi.
6. Bunday gaplar tarkibidagi deb so'zi uchun ko'makchisi bilan ma'nodosh sanaladi. Shuning uchun bir-biri bilan erkin almashina oladi.  
- Yovlar yakson bo'lsin **deb**, yigitlar jang boshladi. (deb = uchun)

## IV. Ko'rsatish olmoshli yordamida ergashgan qo'shma gap



1. Bunday qo'shma gaplarda ergash gap bosh gapdagi ko'rsatish olmoshining ma'nosini izohlab keladi.
2. Bunda ergash gap bosh gapga –**ki** yuklamasi yordamida bog'lanadi.
3. Bu yuklama bosh gapning kesimi tarkibida bo'ladi. Undan keyin yozuvda vergul qo'yiladi.
4. Bunda ergash gap bosh gapdan keyin keladi.  
- Shunday odamlar bork**ki**, gaplashib bahra olasan.
5. Bazan ergash gap tomonidan izohlanayotgan bosh gap tarkibidagi ko'rsatish olmoshi qo'llanilmasligi, tushib qolishi mumkin. Ammo uning o'rni bilinib turadi.  
- (Shuni) Aniqladim**ki**, inson qobiliyati cheksiz ekan.

Eslatma:

1. - ki bog'lovchi vositasi eski o'zbek adabiy tilida –kim shaklida ham ishlatiladi.  
- Dedik**im**, sevganimni aylama darig'
- 2.- ki bog'lovchi vositasi ko'p ma'nolidir-bu bog'lovchi vosita ko'p turdagi ergash gaplarni bosh gapga bog'lashga xizmat qiladi. Shuning uchun ko'p ma'noli hisoblanadi.  
-Nur bork**ki**, soya bor –**sabab** ergash gapli qo'shma gap  
-Shu dargohga kelibman**ki**, boshim janjaldan chiqmaydi.– **payt** ergash gapli qo'shma gap  
-Mol ketsa-ketsin**ki**, jon ketmasin – **to'siqsiz** ergash gapli qo'shma gap  
-Uning bilganlari shu qadar ko'p ed**iki**, so'rab oxiriga yetolmasday ko'rinadi.– **daraja** ergash gapli qo'shma gap  
- Istagim shuk**ki**, hamangiz o'qishga kiring –**kesm** ergash gapli qo'shma gap
3. Quyidagi ikki holatni farqlashimiz kerak:
  - a) –ki asli **takid yuklamasi** hisoblanadi.  
-Inson nimagaki erisholmasa, o'sha aziz tuyiladi.-**nisbiy so'zlar yordamida** bog'lanagan ergashgan qo'shma gap
  - b) –ki **ergash gapni bosh gapga bog'lash** uchun xizmat qilishi ya'ni ergashtiruvchi bog'lovchi vazifasida kelishi mumkin  
- Shuni anglamoq kerak**ki**, ota-ona uchun farzanddan yaqin kishi yo'q.-to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap

**V. Nisbiy so'zlar yordamida ergashgan qo'shma gap**

1. Ergashgan qo'shma gap qismlarini bog'lash uchun nisbiy so'zlar ham xizmat qiladi.
2. Nisbiy so'zlar ikki komponentdan iborat bo'ladi.
  - a) nisbiy so'zlarning birinchi komponenti (so'roq olmoshi bilan ifodalanadi). U ergash gap tarkibida bo'ladi
  - b) nisbiy so'zlarning ikkinchi komponenti shu so'roqqa javob bo'luvchi ko'rsatish olmoshi bo'ladi.(ba'zan olmoshning boshqa turlari bilan ifodalanadi. Bular bosh gap tarkibida bo'ladi.

3. Nisbiy so'zlar bir-biriga nisbatan qo'llanadi. Biri ikkinchisini taqazo qiladi. Shuning uchun nisbiy so'zlar deb ifodalanadi.
4. Nisbiy so'z vazifasida qo'llanilgan so'roq olmoshi. So'roq manosini ifodalamaydi ya'ni: so'roq gapni yuzaga keltirmaydi.
5. Nisbiy so'zli ergashgan qo'shma gaplarda ergash gapning kesimi ko'pincha **-sa shart mayli shaklida bo'ladi**. Ammo unda shart ma'nosi anglashilmaydi.
6. Bunday qo'shma gaplarda ergash gap bosh gapdan oldin keladi. Yozuvda ergash gap va bosh gap orasida vergul qo'yiladi.
7. Nisbiy so'zlarga kim- u, kim-o'sha, kim-o'zi, nimayiki-hammasi, nima-o'sha, qancha-shuncha, qay darajada- shu darajada, qachon-o'shanda, qayerda- shuyerda, qaysi-shu kabilar kiradi.

**-Kimning** ko'ngli ochiq bo'lsa, **uning** el oldida martabasi baland bo'ladi. **Aniqlovchi** E.Q.G.

8. Bazan nisbiy so'zlarning ikkinchi komponenti ya'ni bosh gap tarkibidagi izohlanayotgan ko'rsatish olmoshi qo'llanilmasligi, tushib qolishi mumkin. Ammo uning o'rni bilinib turadi.

**-Kim** ko'p o'qisa, **u** ko'p biladi- **ega** ergash gapli qo'shma gap

Eslatma:

1. Ko'rsatish olmoshli ergashgan qo'shma gaplar bilan nisbiy so'zli ergashgan qo'shma gaplarni taqqoslash

a) farqi shundaki

-Ko'rsatish olmoshili E.Q.G. da ergash gap bosh gapga **-ki yuklamasi yordamida** bog'lanadi.

Nisbiy so'zli E.Q.G.da bo'lsa ergash gap bosh gapga **nisbiy so'zlar yordamida** bog'lanadi.

- Ko'rsatish olmoshili E.Q.G.larda **bosh gap+ ergash gap** qolipida bo'ladi.

Nisbiy so'zli E.Q.G.larda esa **ergash gap + bosh gap** qolipidabo'ladi.

b) o'xshashligi

-ikkalasida ham bosh gap tarkibida izohlanayotgan ko'rsatish olmoshi bo'ladi. Bu ko'rsatish olmoshi ma'nosi ergash gap bilan izohlanadi.

-ikkalasida ham bosh gap tarkibidagi izohlanayotgan ko'rsatish olmoshi tushib qolishi mumkin.

Toleim shuki, vatanda bir guliston tanladim- **kesm** ergash gapli qo'shma gap

Siz **qaysi** yo'ldan borsangiz, biz **shu** yo'lni tanlaymiz.- **aniqlovchi** E.Q.G.

2. Bosh gap tarkibida izohlanayotgan ko'rsatish olmoshi mavjud bo'lgan qo'shma gaplar **havola** bo'lakli E.Q.G. deyiladi.

Demak: Havola bo'lakli qo'shma gaplar deganda ikki narsa nazarda tutiladi.

a) ko'rsatish olmoshili E.Q.G.(vosita **-ki** yuklamasi)

b) nisbiy so'zli E.Q.G. (vosita **nisbiy so'zlar**)

## VI. Shart mayli -sa yordamida ergashgan qo'shma gap

1. Ergash gapning kesimi shart mayli shaklidagi fel bilan ifodalanganda shart mayli qo'shimchasi ergash gapni bosh gapga bog'lash uchun xizmat qiladi. Bunday qo'shma gaplarda ergash gap bosh gapda ifodalangan mazmunning yuzaga **chiqish yoki chiqmaslik shartini, paytini bildiradi**

2. – sa shart mayli ergash gap kesimi tarkibida bo'ladi.

3. Yozuvda undan keyin vergul qo'yiladi. Bunda ergash gap bosh gapdan oldin keladi.

-Seni hurmat qilishlarini istasang, o'zingni hurmat qil.-shart holi ergash gapli qo'shma gap  
Eslatma:

1. –sa shart mayli vositasida ergashgan qo'shma gaplarda shart yoki payt munosabatidan tashqari bazan boshqa mano munosabatlari ham ifodalanishi mumkin.

-Qilich solsa to'g'ralmayman, o'lmayman o'q qadalsa –**to'siqsizlik holi** ergash gapli qo'shma gap

-Qo'rqqoq keta turib maqtansa, jasur qaytib kelib maqtanadi.- **qiyos holi** ergash gapli qo'shma gap

2. –sa shart mayli shakli shart bog'lovchisi yordamida E.Q.G. larda ham, nisbiy so'zli E.Q.G.larda ham ergash gapning kesimi tarkibida keladi.

3. Bu uch holatni farqlash kerak.

-**Kimki** aqlu tadbir bilan ish tutsa, **u** o'z maqsadiga erishadi. –**ega** E.Q.G.


- **Agar** daraxt shoxlari yoz faslida sarg'aysa, kuz erta keladi.-**shart holi** E.Q.G.

- Yaqin borib qarasa, qoraygan yerga bolalar ko'ylagiga qadaladigan tugma sanchilib yotibdi.-**payt holi** E.Q.G.

4. –**sa shart mayli** qo'shimchasi ergash gapning kesimi tarkibida kelar ekan nomustaqil kesm shaklni hosil qiladi.

**Ergash gapni bosh gapga bog'lovchi vositalar, Ergash gap va bosh gap o'rni ifodalanadigan ma'no munosabati haqida umumiy**

## Xulosalar



### Eslatma-I:

1. Biz yuqoridagi ergash gapning bosh gapga nisbatan o'rnini belgiladik bazan badiiy adabiyotda, shariyatda ergash gap bosh gapga nisbatan o'rnini o'zgartirishi mumkin.  
- Onalarda g'am qolmas, mustaxkam bo'lsa tinchlik.-shart ergash gapli qo'shma gap  
-Har kishi ter to'kib qiladi mehnat, xalqimizning turmushi obod bo'lsin **deb**.- maqsad E.Q.G.

### Eslatma-II:

1. Ergash gap bosh gapdan oldin yoki keyin keladi. Oliy ta'limda ko'rsatilishicha sanoqli misollarda ergash gap bosh gap o'rtasida kelishi mumkin.  
- Men, o'qituvchi besh baho qo'yadi **deb**, o'yladim.-to'ldiruvchi EQG

### Eslatma-III:

1. Biz yuqoridagi ergash gapni bosh gapga bog'lash uchun xizmat qiladigan vositalarni ko'rib o'tdik. Oliy ta'limda ko'rsatilishicha yuqoridagilardan tashqari yana ayrim vositalar ergash gapni bosh gapga bog'lash uchun xizmat qiladi.  
- Bilarmisan, sevgan kishiga sodiq bo'lmoq o'zi sadoqat.-**to'ldiruvchi** EQG  
- Bir narsa desinchi, boshida tegirmon toshini yurguzaman.-**shart** EQG

### Eslatma-IV:

1. Ergash gaplar bosh gap tarkibidagi **qaysi gap bo'lagini izohlab kelishi** yoki bosh gap orqali ifodalangan qanday ma'no munosabatini izohlashiga ko'ra gap bo'laklari singari 5 ga bo'linadi.

- a) **kesm** ergash gapli qo'shma gap
- b) **ega** ergash gapli qo'shma gap
- c) **to'ldiruvchi** ergash gapli qo'shma gap
- d) **aniqlovchi** ergash gapli qo'shma gap
- e) **hol** ergash gapli qo'shma gap

### I. Kesm ergash gapli qo'shma gap

1. Bosh gap tarkibida **kesm vazifasida qo'llanilgan ko'rsatish olmoshining** ma'nosini izohlab keluvchi **ergash gap** kesm ergash gap deyiladi.
2. Kesm ergash gap bosh gap bilan birgalikda **kesm ergash gapli qo'shma gapni** hosil qiladi.
3. Kesm ergash gap bosh gap orqali beriladigan nima, nimada, nimadan, hosil qiladi, iborat, nima bo'ldi, qanday, qayerda kabi so'roqlarga javob bo'ladi.
4. Kesm ergash gap bosh gap tarkibida kesm vazifasida kelayotgan shu, shunda, shunday, shundan iborat, shu bo'ldi, qayerda kabi so'roqlarning ma'nosini izohlab keladi.
5. Kesm ergash gap bosh gapda bitta yo'l bilan ya'ni ko'rsatish olmoshi tarkibidagi **-ki yuklamasi** yordamida bog'lanadi
6. Bunda ergash gap bosh gapdan keyin keladi.

-Xalqning xulosasi **shuki**, xudbin odam hech qachon elga qo'shilmaydi. -**kesm EQG**

Eslatma:

1. Oliy ta'lim darsliklarida ko'rsatilishicha sanoqli misollarda kesm ergash gap bosh gapga **nisbiy so'z** bilan bog'lanishi mumkin. Bunda: ergash gapning kesimi shart mayli shalida bo'ladi. Bunda ergash gap bosh gapdan oldin keladi.

-**Kim** ishlasa, yer **o'shaniki**. -**kesm EQG**

### II. Ega ergash gapli qo'shma gap

1. Bosh gap tarkibida **ega vazifasida qo'llanilgan ko'rsatish olmoshining** ma'nosini izohlab keluvchi **ergash gap** ega ergash gap deyiladi.
2. Ergash gap bosh gap bilan birga **ega ergash gapli qo'shma gapni** hosil qiladi.
3. ergash gap bosh gapdan beriladigan kim, nima, qaysisi, qayer kabi so'roqlarga javob bo'ladi.
4. Ega ergash gap bosh gap tarkibida ega vazifasida kelayotgan:
  - a) u, shu, o'sha, shunisi, o'shanisi kabi ko'rsatish olmoshlari
  - b) o'zi, hammasi kabi ba'zan boshqa turdagi olmoshlar
  - c) shu narsa, bir narsa kabi birliklarning ma'nosini izohlab keladi.
5. Ega ergash gap bosh gapga 2 usul bilan bog'lanadi.

a) **nisbiy so'zlar yordamida** bog'lanadi. Bunda ergash gap kesimi ko'pincha **–sa shart mayli** shaklidagi fellar bilan ba'zan **–r(-ar) ekan, -mas ekan** shaklidagi fellar bilan ifodalanadi. Bunda ergash gap bosh gapdan oldin keladi.

-**Kimki** rostgo'y samimiy bo'lsa, **u** el orasida qadr topadi. **-ega EQG**

b) Bosh gap kesimi tarkibida qo'llanuvchi **–ki yuklamasi** yordamida bog'lanadi. Bunda ergash gap bosh gapdan keyin keladi.

-**Shu narsa aniqki**, ta'rixni bilmagan qul bo'ladi. **-ega EQG**

6. Bazan bosh gap egasi sifatida kelayotgan ma'nosi izojlanayotgan ko'rsatish olmoshi tushib qolishi mumkin. Ammo uning o'rni bilinib turadi.

-Bu savoldan (shu) ma'lum bo'ldiki, aybnoma uydirma emas. **-ega EQG**

Eslatma: Oliy ta'limda ko'rsatilishicha bazan ega ergash gap bosh gapga **–mi, -ku,-yu yuklamalari** yordamida bog'lanishi mumkin.

- (Shu) Eslaringdami, bir yili u bir kunda 200 kg paxta tergan edi. **-ega EQG**

### **III. To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap**

1. Bosh gap tarkibida **to'ldiruvchi vazifasida qo'llanilgan ko'rsatish olmoshining** ma'nosini izohlab keluvchi **ergash gap** to'ldiruvchi ergash gap deyiladi.

2. To'ldiruvchi ergash gap bosh gap bilan birgalikda to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gapni yuzaga keltiradi.

3. To'ldiruvchi ergash gap bosh gap orqali beriladigan kimni, nimani, kimga, nimaga, kimdan, nimadan, kim haqida, nima to'g'risida, kim uchun, nima bilan kabi so'roqlarga javob bo'ladi.

4. To'ldiruvchi ergash gap bosh gap tarkibida to'ldiruvchi vazifasida kelayotgan tushum, o'rin payt, jo'nalish, chiqish yoki ko'makchlarni olgan ko'rsatish olmoshi ma'nosini izohlab keladi.

5. To'ldiruvchi ergash gap ham bosh gapga 2 yo'l bilan bog'lanadi.

a) nisbiy so'zlar- bunda ergash gap kesimi **–sa shart mayli** shaklidagi fellar bilan (-r-ar ekan, -mas ekan) shaklidagi fellar bilan ifodalanadi. Bunda ergash gap bosh gapdan oldin keladi.

- **Kimki** bo'lsa dilozor, **undan** el yurt bezor. **-to'ldiruvchi EQG**

b) bosh gapning kesimi tarkibida qo'llanuvchi **–ki yuklamasi** yordamida bog'lanadi. Bunda ergash gap bosh gapdan keyin keladi.

-**Shuni** unutmangki, do'stlar bilan suhbat qilish yaxshi. **- to'ldiruvchi EQG**

6. Ba'zan bosh gap tarkibida to'ldiruvchi vazifasida kelayotgan ma'nosi izohlanayotgan ko'rsatish olmoshi qo'llanilmasligi tushib qolishi mumkin. Ammo uning o'rni bilinib turadi.

- (Shuni)Bilingki, jim turib salomat bo'lish, gapirib malomatga qolishdan afzal.

Eslatma-I:



1. Oliy ta'limda ko'rsatilishicha ba'zan **to'ldiruvchi ergash gap** bosh gapga **deb** yarim bog'lovchisi yordamida bog'lanishi mumkin. Bunda ergash gap bosh gapdan oldin keladi, ayrim hollarda esa ergash gap bosh gapning o'rtasida ham kelishi mumkin.

-Munavvar, Yo'ldosh biror narsa dermikin deb, kutdi--**to'ldiruvchi EQG**

**Eslatma-II** 1. Oliy ta'limda ayrim misollarda -to'ldiruvchi ergash gap bosh gapga –mi,-chi,-ku yuklamalari yordamida bog'lanishi mumkin. Bunda ergash gap bosh gapdan keyin keladi.

-Bilarmisan, sevgan kishiga sodiq bo'lmoq o'zi saodat. -**to'ldiruvchi EQG**

#### **IV. Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap**

1. Bosh gap tarkibida **aniqlovchi vazifasida qo'llanilgan ko'rsatish olmoshining** ma'nosini izohlab keluvchi **ergash gap** aniqlovchi ergash gap deyiladi.

2. Aniqlovchi ergash gap bosh gap bilan birga aniqlovchi ergash gapli qo'shma gapni hosil qiladi.

3. Aniqlovchi ergash gap bosh gap orqali beriladigan kimning, nimaning, qaysi kabi so'roqlarga javob bo'ladi.

4. Aniqlovchi ergash gap bosh gap tarkibida sifatlovchi yoki qaratqichli aniqlovchi vazifasida kelayotgan shu , o'sha, shunday, shunaqa, ba'zi, ayrim, bir xil, uning , o'shaning kabi so'zlarning ma'nosini izohlab keladi.

5. Aniqlovchi ergash gap ham bosh gapga 2 yo'l bilan bog'lanadi.

a) nisbiy so'zlar bilan bunda ergash gap kesimi –sa shart mayli shaklidagi fellar bilan, bazan (-r-ar ekan, -mas ekan) shaklidagi fellar bilan ifodalanadi. Bunda ergash gap bosh gapdan oldin keladi.

- **Kim** birovga yaxshilik qilsa, **uning** obro'yi baland bo'ladi.-**aniqlovchi EQG**

b) Bosh gap kesimi tarkibida qo'llanuvchi –**ki yuklamasi** yordamida bog'lanadi. Bunda ergash gap bosh gapdan keyin keladi.

-Shunday odamlar borki, ular kelajakni oldindan bashorat qiladi.- **aniqlovchi EQG**

6. Bazan bosh gap tarkibida aniqlovchi vazifasida kelayotgan ma'nosi izohlanayotgan olmoshlar qo'llanilmasligi tushib qolishi mumkin. Ammo uning o'rni bilinib turadi.

-(shunday)Odam borki, odamlarning naqshidir.

#### **V. Hol ergash gapli qo'shma gap**

1. Bosh gap tarkibida **hol vazifasida qo'llanilgan ko'rsatish olmoshining** ma'nosini izohlab keluvchi, yoki bosh gap orqali ifodalangan mazmunning sababini, maqsadini, shartini, holatini, daraja-miqdorini bildirgan **ergash gap** hol ergash gap deyiladi.

2. Hol ergash gap bosh gap bilan birga hol ergash gapli qo'shma gapni hosil qiladi.

3. Quyidagi vositalar yordamida bog'lanadi.

a) nisbiy so'zlar

b) felning –sa shart mayli shakli

c) ergashtiruvchi bog'lovchilar ya'ni: -sabab; -maqsad; -shart; -chog'ishtiruv

d) bog'lovchi vazifasidagi "deb" so'zi yordamida

4. Hol ergash gap holning ma'no turiga muvofiq o'z ichida bo'linadi.

-o'rin EQG

-payt EQG

-sabab EQG

-maqsad EQG

-miqdor daraja EQG -shart EQG

### 1. O'rin ergash gapli qo'shma gap

1. O'rin ergash gap bosh gap tarkibida o'rin holi vazifasida qo'llangan u yer, u yoq, shu yoq, o'sha tomon kabi so'zlarning ma'nosini izohlab keladi.

2. O'rin ergash gap qayerga? qayerda? qayer dan? qayoqqa? qay tomonga? kabi so'roqlarga javob b-di.

3. O'rin e/g bosh gapga nisbiy so'zlar yordamida bog'lanadi. Bunda ergash gap + bosh gap shaklida b-di.

M: Oqsoqol qayerda bolsa, o'sha joy da ish bir tartibda borar edi.

### 2. Payt ergash gapli qo'shma gap

1. Payt ergash gap bosh gapda ifodalangan mazmunning yuzaga chiqish paytini yoki bosh gapda payt holi vazifasida qo'llanilgan o'shanda, o'sha vaqtda kabi so'zlarning ma'nosini izohlab keladi.

2. Payt ergash gap qachon? qachongacha? qachondan beri? qay vaqtda? kabi so'roqlarga javob b-di.

3. Payt ergash gap bosh gapga:

a) asosan, -sa shart mayli q-chasi yordamida bog'lanadi. Bunda ergash gap + bosh gap shaklida b-di.

M: Dutor chalib o'tirsam, tori uzilib ketdi

b) ba'zan nisbiy so'zlar yordamida bog'lanadi. Bunda ham ergash gap + bosh gap shaklida bo'ladi.

M: Qachon uydagilaringiz kelsa, o'shanda bafurja gaplashamiz.

4. Oliy ta'lim darslilarida payt ergash gap bosh gapga ba'zan boshqa vositalar yordamida bog'lanishi mumkinligi ham ko'rsatiladi.

M: Dunyo yaralmishkj, oftob bor.

Yoki: Toki hayot davom etar ekan, ta'lim-tarbiya muttasil ravishda yangilanib boraveradi. O-

### 3. Sabab ergash gapli qo'shma gap

1. Sabab ergash gap bosh gapda ifodalangan mazmunning yuzaga chiqish sababini bildiradi.

2. Sabab ergash gap nega? nima uchun? nima sababdan? kabi so'roqlarga javob bo'ladi.

3. Sabab ergash gap bosh gapga:

a) sabab bog'lovchilari yordamida bog'lanadi. Bunda bosh gap + ergash gap shaklida bo'ladi.

Oynisa opa xatni oxirigacha o'qiy olmadi, chunki hovlining eshigini kimdir taqillata boshladi.

b) kolmakchiji qurilmalar yordamida bog'lanishi mumkin. Bunda ergash gap + bosh gap shaklida b-di.

M: Olim kishilar har yerda aziz, mo'tabardir, shuning u-n har vaqt ilm olish ilinjida bol. (ba'zan ko'makchili qurilmalar bilan birga -ki yuklamasi ham qo'llanishi mumkin, bunda bosh gap + ergash gap shaklida bo'ladi.

M: Yoshlarimizning iqboli shuning u-n ham balandgi- ularning O'zb-nday jannatmonand yurti bor.) d) deb yarim bog'lovchisi yordamida bog'lanishi mumkin. Bunda ergash gap + bosh gap shaklida b-di.

M: Shular quvib keldi deb, jahlim chiqdi.

4. Oliy ta'limda sabab e/g bosh gapga ba'zan boshqa vositalar yordamida bog'lanishi mumkinligi ko'rs-n.

M: Nur borki, soya bor.

5. Oliy ta'lim darsliklarida sabab ergash gaplar mazmuniga ko'ra 2 ga bo'lingan:

a) bosh gapdan anglashilgan voqea-hodisaning aniq sababini bildirgan ergash gaplar -bunda ergash gap bosh gapga yuqoridagi vositalar yordamida bog'lanadi;

b) bosh gapdan anglashilgan voqea-hodisaning aniq bo'lmagan taxmin qilingan, gumon qilingan sababini bildirgan e/g -bunda ergash gap bosh gapga -sa kerak, -mi vositalari yordamida bog'lanadi. M: Oyoqlari yerga yopishib qoldigmi) sira qimiray olmadi. Yoki: Majlis uzoq davom etmagan bolsa kerak, u tez qaytdi.

#### **4. Maqsad ergash gapli qo'shma gap**

1. Maqsad ergash gap bosh gapda ifodalangan mazmunning yuzaga chiqish maqsadini bildiradi.

2. Maqsad ergash gap nimaga? nima maqsadda? kabi so'roqlarga javob bo'ladi.

3. Maqsad ergash gap bosh gapga:

a) maqsad bog'lovchisi **toki** yordamida bog'lanishi mumkin. Bunda bosh gap + ergash gap shaklida bo'ladi.

M: Vijdonni asrangiz har nedan ortiq Bobolardan qolgan noyob bu tortiq, Toki avlodlarga yetolsin omon.

b) deb yarim bog'lovchisi yordamida bog'lanishi mumkin. Bunda ergash gap + bosh gap shaklida bo'ladi.

M: Kamalakdek rango-rang bo'lsin beb san'at, tillar asrlarcha qildim jang.

#### **5. Miqdor-daraja ergash gapli qo'shma gap**

1. Miqdor-daraja ergash gap bosh gapdan anglashilgan mazmun, voqea-hodisa, ish-harakatni uning miqdori va darajasiga ko'ra VIchab keladi.

2. Miqdor-daraja e/g qancha? qanchalik? qay darajada? qay miqdorda? kabi so'roqlarga javob bo'ladi.

3. Miqdor-daraja ergash gap bosh gapga:

a) asosan, nisbiy so'zlar yordamida bog'lanadi. Bunda ergash gap + bosh gap shaklida bo'ladi.

M: O'simlikni gancha parvarish qilsang, hosil shuncha to'l bo'ladi. b) ba'zan bosh gap kesimi tarkibida qo'llanuvchi -ki yuklamasi yordamida bog'lanishi mumkin.

M: lining bilmaganlari shu qadar ko'p ediki so'rab oxiriga yetolmasday ko'rindi.

#### **6. Shart ergash gapli qo'shma gap**

1. Shart ergash gap bosh gapdan anglashilgan mazmun, voqea-hodisaning yuzaga chiqish yoki chiqmaslik shartini bildiradi.

2. Shart ergash gap nima bo'lsa? qanday shart bilan? kabi so'roqlarga javob bo'ladi.

3. Shart ergash gap bosh gapga:

a) shart bog'lovchilari yordamida bog'lanadi. Bunda ergash gap + bosh gap shaklida bo'ladi. Bunda ergash gapning kesimi -sa shart mayli shaklida bo'ladi.

M: Agar e'tiqod susaysa, iymon ham unutilgay.

b) shart mayli q-chasi yordamida bog'lanadi. Bunda ham ergash gap + bosh gap shaklida bo'ladi.

M: Boshingga tashvish tushmasa, qaytib kelmas eding.

4. Oliy ta'limda ba'zan shart e/g bosh gapga boshqa vositalar yordamida bog'lanishi mumkinligi ko'rs-n.

M: Intizom buzildimi ishda unum bo'lmaydi.

Yoki: Bir narsa desin-chi, boshidan tegirmon toshi yurgizaman.

5. Oliy ta'limda shart ergash gap ham mazmuniga ko'ra ikkiga bo'lingan:

a) bosh gapda ifodalangan voqea-hodisaning aniq shartini bildiradigan ergash gaplar;

b) bosh gapda ifodalangan voqea-hodisaning taxmin qilingan, tasmol qilingan shartini bildirgan ergash gaplar. Bunda ergash gapning kesimi -&a<sub>r</sub> edi shaklida bo'ladi.

#### **7. To'siqsiz ergash gapli qo'shma gap**

1. To'siqsiz ergash gaplar bosh gapda ifodalangan mazmunning yuzaga chiqishiga to'siq bo'la o'lmagan shartni ifodalaydi.

2. To'siqsiz ergash gap nima bo'lsa ham? so'rog'iga javob bo'ladi.

3. To'siqsiz ergash gap bosh gapga -sa shart maylidari keyin ham yoki -da yuklamalarini keltirish orqali bog'lanadi. Bunda ergash gap + bosh gap shaklida bo'ladi.

M: Hali qish tugamagan bo'lsa ham, bahor nafasi sezilib turar edi.

4. Oliy ta'limda to'siqsiz e/g bosh gapga ba'zan boshqa vositalar yordamida bog'lanishi mumkinligi ko'rs-n. M; Podsho o'lgan bo'lsa, zamona tirik.  
Yoki: Mol ketsa-ketsinki jon ketmasin.

### 8. Qiyos ergash gapli qo'shma gap

1. Bunday qo'shma gaplar o'xshatish-chog'ishtirish ergash gapli qo'shma gaplar deb ham nomlanadi va oliy ta'limda o'z ichida ikkiga bo'lib o'rganiladi:

a) o'xshatish ergash gapli qo'shma gap; b) chog'ishtirish ergash gapli qo'shma gap.

2. O'xshatish ergash gapli qo'shma gaplarda bosh gapdan anglashilgan mazmun, voqea-hodisa ergash gapga o'xshatiladi. E/g bosh gapga xuddi, go'yo, goyoki chog'ishtiruv bog'lovchilari yordamida bog'lanadi,

M: Misralarda so'zlar gavhar kabi yonadi, go'yo yangi ranglar, yangi jilvalar bilan porlaydi.

3. Chog'ishtirish ergash gapli qo'shma gaplarda bosh gap va ergash gapdan anglashilgan voqea-hodisalar taqqoslanadi, qiyoslanadi. Ergash gap bosh gapga - sa shart mayli q-chasi yordamida bpg'lanadi,

M: Gullar ishq haqida kuylasalar, bulbullar sadoqat haqida bahslashishardi

### 9. Ravish ergash gapli qo'shma gap

1. Ravish ergash gap bosh gapda ifodalangan voqea-hodisaning qay tarzda yuzaga chiqishini bildiradi.

2. Ravish ergash gap qanday? qay tarzda? qay vaziyatda? kabi so'roqlarga javob bo'ladi.

3. Oliy ta'lim darsliklarida ko'rsatilishicha, ravish ergash gap bosh gapga quyidagicha bog'lanadi:

a) bosh gapning kesimi tarkibida qollanuvchi (-ki) yuklamasi yordamida bog'lanadi. Bunda bosh gap + ergash gap shaklida bo'ladi.

M: Menga shunday tuyuldiki, u katta kuch-qudratga ega.

b) ba'zan (deb) yarim bog'lovchisi yordamida bog'lanadi. Bunda ergash gap + bosh gap shaklida b-di.

M: Baxtim bor deb, esadi yellar.

**Eslatma:** Oliy ta'lim darsliklarida natija ergash gapli qo'shma gaplar ham ko'rsatiladi. Bunda:

- qo'shma gapning 2-qismi qo'shma gapning 1-qismidan anglashilgan ish-harakat, voqea-hodisaning natijasini bildiradi;

- qo'shma gapning 1-qismi 2-qismda- ifodalangan voqea-hodisaning sababini bildiradi;

- 2-qismdan oldin natijada, oqibatida kabi so'zlar qo'llaniladi;

- 1-qism tarkibida shunday, shunchalik, shu qadar kabi so'zlar bo'ladi;

- bog'lanish vositasi -ki yuklamasi hisoblanadi.

M: U voqeani shunday ta'sirli qilib gapirib berdiki, natijada ota ko'ziga yosh oldi

### Ergashgan qo'shma gaplar bilan sodda gaplarning ma'nodoshligi

1. Havola bo'lakli qo'shma gaplar ya'ni bosh gap tarkibida izohlanayotgan ko'rsatish olmoshi mavjud bo'lgan qo'shma gaplar sodda gaplar bilan ma'nodoshlik hosil qiladi.

**-Kimki** mustaqil fikr yuritmasa, **uni** boshqalar egib oladi. **-nisbiy so'zli EQG yoki-to'ldiruvchi EQG**

**-Mustaqil fikr yuritmaganni boshqalar egib oladi.- sodda gap**

2. Bunday sinonimlikni yuzaga keltirish uchun ergash gapni bosh gap tarkibidagi ma'nosi izohlanayotgan olmoshning o'rniga qo'yish kerak.

**- Shunga aminmanki, ertamiz bugundan porloq bo'ladi. -to'ldiruvchi EQG**

**-Ertamiz bugundan porloq bo'lishiga aminman. -sodda gap**

3. Havola bo'lakli qo'shma gaplar va ularga sinonim bo'lgan sodda gaplar bir xil mazmun ifodalashi jihatdan umumiylikni tashkil qiladi. Ammo ular ma'noni takidlash va uslubiy xoslanganligi jihatdan farq qiladi.

**"ZiyoMax o'quv kurslari [web: ziyomax.uz](http://web:ziyomax.uz) @ziyomax\_uz Umurov FERUZ Faxriddinovich (97)-303-70-07**

4. Havola bo'lakli qo'shma gaplarda ma'no sodda gaplardagiga nisbatan takidlangan bo'ladi.

5. Havola bo'lakli qo'shma gaplar ko'proq **kitobiy uslub uchun**, ularga sinonim bo'lgan sodda gaplar esa **uslubiy betaraflik** xususiyatiga ega.

Eslatma:

1. Ko'makchili qurilmalar yordamida ergashgan qo'shma gaplar ham sodda gaplar bilan ma'nodoshlik hosil qiladi.

-Maktabimizda sport klubi yaxshi faoliyat olib bormoqda, **shuning uchun** klub a'zolari turli musobaqalarda g'olib chiqmoqdalar. **-ko'makchili qurilmalar EQG -sabab EQG**

-Maktabimizda sport klubi yaxshi faoliyat olib borayotgani uchun klub a'zolari turli musobaqalarda g'olib chiqmoqdalar. **-sodda gap**

2. Bunday sinonimlikni yuzaga keltirish uchun:

-ko'makchili qurilmalarning birinchi komponenti tushirib qoldiriladi.

-sabab ergash gap kengaygan sifatdoshli birikma bilan ifodalangan sabab holiga aylantiriladi.

3. Bazan ergashgan qo'shma gapni boshqa turlari ham sodda gaplar bilan ma'nodoshlikni yuzaga keltirishi mumkin.

-Yomg'ir tomchilayotgan bo'lsa ham, havo iliq edi. **-to'siqsiz EQG**

-Yomg'ir tomchilayotgan bo'lishiga qaramay havo iliq edi- **sodda gap**

### III. BOG'LOVCHISIZ QO'SHMA GAPLAR

1. Tarkibidagi sodda gaplar mazmunan bir biriga bog'liq bo'lib? Maxsus bog'lovchi vositalarisiz faqat ohang yordamida bog'langan qo'shma gaplar **bog'lovchisiz qo'shma gaplar** deyildi.

2. Bog'lovchisiz qo'shma gaplar litsey darsliklarida ohang yordamida **bog'langan qo'shma gaplar** deyiladi.

3. Bog'lovchisiz qo'shma gaplarning qolipi quyidagicha bo'ladi  —  .

4. Bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari orasida turlicha ma'no munosobati ifodalanishi mumkin.

-Paxtalar qiyg'os ochildi, terim avjiga chiqdi.

-Ko'prikni biz qurdik, dushmanlar o'tdi. — zidlik munosobati;

-Suv keldi, nur keldi. — o'xshatish munosobati;

-Orzularim shu: o'chmasin yongan chirog'ing. — izohlash munosobati;

-Dalasida, o'smas tikonlar, cho'llarida choqmas ilonlar. — payt munosobati;

5. Bog'lovchisiz qo'shma gap orasida — vergul, nuqtali vergul, ikki nuqta, tire tinish belgilari ishlatiladi.

## **BOG'LOVCHISIZ QO'SHMA GAPLARDA TINISH BELGILARI**

### **I.Vergulning ishlatilishi**

1.Bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari bir paytda yoki ketma-ket sodir bo'lgan voqea hodisalarni ifodalasa, payt munosobati bo'lsa, shuningdek mazmunan bir biriga yaqin bo'lsa vergul ishlatiladi.

-Yigitlar daraxtlarning ostini yumshatdilar, qizlar supurdilar.

2.Shuningdek bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari tuzilishi jihatidan bir xil bo'lib, biror narsani tavsifini beruvchi sanash ohangi bilan aytiladigan gaplardan tashkil topgan bo'lsa ham vergul qo'yiladi.

-Xalq dengizdir, xalq to'lqindindir, xalq kuchdir. – murakkab qo'shma gap;

### **II.Nuqtali vergulning ishlatilishi**

1.Bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari mazmun jihatdan tugal fikrni ifoda etsa, mazmunan bir biriga unchalik yaqin bo'lmasa nuqtali vergul ishlatiladi.

-Shinel jiqqa ho'l; Bektemirning yuzidan tomchilar quyilar edi.

2.Bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari ketme ket voqea hodisalarni ifodalagan va o'z ichida tinish belgilari qo'llanilgan bo'lsa nuqtali vergul ishlatiladi.

-Kampirning jig'i-biyroni chiqdi; ombordan olib chiqqan paxtasi bilan chig'irig'ini chiqarib, vaysaganicha, uyiga kirib ketdi.

3.Shuningdek litseyda ko'rsatilishicha bog'lovchisiz qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar ifodalagan mazmun voqea hodisalar bir biriga qiyoslanganda ham nuqtali vergul ishlatiladi.

-Ish kuchini yelga berma, Yerga ber; Jamg'armani selga berma, elga ber.

### **III.Tirening ishlatilishi**

1.Bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari orasida o'xshatish, zidlash, shart munosobatlari ifodalansa tire qo'tiladi.

-Kunduzi issiq – kechasi sovuq (**zidlash ma'nosi**).

-Qor yog'di – don yog'di (**o'xshatish ma'nosi**).

-Yurt tinch – sen tinch (**shart munosobati**).

2.Shuningdek 10-sinfda bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari orasida payt yoki natija munosobatlari ifodalanganda ham tire qo'yilishi mumkin.

-Qirq to'rt so'mdan 27 so'mni olib tashladi – 17 so'm qoldi (natija).

-Rais kirib keldi – majlis boshlandi (ketma ket sodir bo'lgan voqea hodisalar, payt munosobati. Tezlik ma'nosi).

### **ESLATMA:**

1.Litsey darsligida bog'lobchisiz qo'shma gaplarda ikkinchi gapning kesimi tushirilsa tire ishlatilishi ko'rsatilgan.

-Olamni quyosh yoritisa, insonni – ilm.

2.Bunda bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari orasida vergul ishlatiladi.

3.Bog'lovchisiz qo'shma gapning ikkinchi qismida egadan oldin tire ishlatiladi.



#### IV. Ikki nuqtaning ishlatilishi

1. Bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari orasida **izohlash munosobati** bo'lsa, ya'ni keyingi sodda gap oldingi sodda gapdan anglashilgan mazmun voqeani **izohlab kelsa ikki nuqta** ishlatiladi.

-Bizning qarorimiz shu: hasharda barchamiz ishtirok etamiz.

2. Bunda bog'lovchisiz qo'shma gap tarkibidagi **sodda gaplar shaklan tugallangan, lekin mazmunan keyingisi oldingisining uzviy davomi** sanaladi.

3. Shuningdek bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari **sabab, natija** izohlanganda ham ikki nuqta qo'yiladi.

-Bahodir deb atagin meni: hijroningga berdimku bardosh.

#### IV. MURAKKAB QO'SHMA GAPLAR

1. Turli bog'lovchi vositalar yordami bilan o'zaro bog'langan uch va undan ortiq gaplarning bir butunligi **murakkab qo'shma gap** deyiladi.

2. Murakkab qo'shma gaplar o'z ichida 4 guruhga bo'linadi:

a) bir necha ergash gapli MQG

b) bir necha bosh gapli MQG

c) aralash MQG

d) qismlari uyushgan MQG

##### A) Bir necha ergash gapli murakkab qo'shma gap

1. Tarkibida 2 va undan ortiq ergash gaplari mavjud bo'lgan qo'shma gaplar bir necha ergash gapli murakkab qo'shma gap hisoblanadi.

2. Bunday murakkab qo'shma gaplarda bosh gap 1 ta bo'ladi, ergash gap esa birdan ortiq bo'ladi.

3. Bunday murakkab qo'shma gaplarda ergash gaplar asosan bir xil turga mansub bo'ladi.

-xalqimiz shuni istaydiki, yurtimiz tinch bo'lsin, turmush bo'lsin.

4. Ba'zan ergash gaplar har xil turga mansub bo'lishi mumkin.

-Bunday odamlar uning e'tiqodiga qarshi fikr aytsalar ham agar o'sha fikr samimiy aytilsa, hech achchig' chiqmas edi.

5. Bunday murakkab qo'shma gaplarda ergash gaplarning soni ko'pincha 2 ta ba'zan esa 2 tadan ortiq bo'lishi mumkin.

-Qalbingda yotsa ham bir dunyo alam,

qaddingni buksa ham alam-alam g'am,

boshinga ayriliq solsa ham soya,

ko'ngil g'ash bo'lsa ham be niyat,

soching oqarsa ham hijron tufayli,

onajon oqizmay ko'zingdan ko'p yosh.

6. Ba'zan bosh gap 2 ta ergash gap orasida kelishi mumkin.

-Agar biror fakr ma'qul kelib qolsa, Arslonbekka aytishga shoshilmas, chunki u kishi ko'nmasligi mumkin.

**B) Bir necha bosh gapli murakkab qo'shma gaplar** 1. Tarkibida 2 va undan ortiq bosh gap mavjud bo'lgan qo'shma gaplar bir necha bosh gapli murakkab qo'shma gaplar hisoblanadi. Bunday murakkab qo'shma gaplarda ergash gap 1 ta, bosh gap esa 1 dan ortiq bo'ladi.

-Boshimda o'ynar qamchilar, qon ko'zimdan tomchilar, bir bundoq gul yanchilar, ozodkorim kelmasa.

2. Bunday murakkab qo'shma gaplarda:

a) odatda ergash gap bosh gap tarkibidagi bir xil gap bo'lagi bir xil mazmunni izohlab keladi.

-Kimki ota onasini hurmat qilsa, u boshqalardan izzat topadi, el o'rtasida yaxshi deb nom qozonadi.

b) ba'zan ergash gap bosh gap tarkibidagi har xil bo'laklarini izohlashi mumkin.

-Shu narsa ayonki, hamma shu narsani biladiki, odobsizlar e'tibor qozonmaydi.

**C) Aralash murakkab qo'shma gaplar**

1. Tarkibida ergashgan, bog'langan va bog'lovchisiz qo'shma gaplar mavjud bo'lgan murakkab gaplar **aralash murakkab qo'shma gaplar** deyiladi.

2. Ularning qismlari turli yo'llar bilan bog'lanishi mumkin:

a) ergashish va bog'lanish

-Feruza uning jovdirashlariga ko'pda e'tibor bermaydi, biroq kampir shu qadar sezgirki, suhbatdoshi nekuydaligini bilib oladi.

b) ergashish va bog'lovchisiz yo'l bilan:

-Insonlikning mohiyati baxt saodatga erishishdadir, kimki bu maqsadni o'zining oily istagi va g'oyasiga aylantirsa, u baxt – saodatga erishadi.

c) bog'lanish va bog'lovchisiz yo'l bilan:

-Kampirning katalakdek hovlisi misoli tandır: quyosh lovullab qizdiradiyu, atrof uylar bilan o'ralgani uchun shabboda yurimaydi.

d) ham ergashish ham bog'lovchili ham bog'lovchisiz yo'l bilan.

-Esida bor: Otasi bilan mana shu o'rindiqqa o'tirsa, mototsikl degani qattiq ovoz chiqarib, yurib ketadiyu, nevara q'rqqanidan otasini mahkam quchoqlab, ko'zlarini yumib oldi.

**D) Qismlari uyushgan murakkab qo'shma gaplar**

1. Bir turdagi 3 va undan ortiq gaplardan tashkil topgan qo'shma gaplar qismlari uyushgan murakkab qo'shma gaplar deyiladi.

-Umr o'tar, vaqt o'tar, xonlar o'tar, taxt o'tar,

Omad o'tar, baxt o'tar – (6 ta sodda gap hammasi bog'lovchisiz bog'langan).

2. Avliyolar, olqagan emish a'lo, so'zi butun, tizzasi tik, ko'ksi osmon, muzaffarlik ko'rib o'tgan bir avliyo, o'zingizsiz, sohib qiron Temur bobo (5 ta qismdan iborat bog'lovchisiz bog'lagan).

### QO'SHMA GAP TURLARINING MA'NODOSHLIGI

1. MA'nodoshlik ya'ni sinonimlik hodisasi turli til birliklari orasida uchraydi, jumladan:

a) so'zlar o'zaro sinonim bo'lishi mumkin, bu leksik yoki lug'aviy sinonimlikdir.

b) iboralar o'zaro sinonim bo'lishi mumkin. Bu frezologik sinonimlikdir.

c) so'z va ibora o'zaro sinonim bo'lishi mumkin. Bu leksik freziologik sinonimlikdir.

d) shuningdek grammatik sinonimlik ham mavjud. U o'z ichida 2 ga bo'linadi:

-Morfologik sinonimlik

-Sintaktik sinonimlikdir

2. Grammatik shakllar orasidagi sintaktik morfologik sinonimlik hisoblanadi –ish, -imtir, -chil – morfologik sinonimlar.

-yap, -yotir, -moqda – morfologik sinonimlar.

3. So'z birikmalari, gap bo'laklari va gaplar o'rtasidagi sinonimlik sintaktik sinonimlik hisoblanadi.

4. Sinonimlik munosobati qo'shma gaplarda ham uchraydi, bunda sinonimlik munosabatini quyidagi hollarda kuzatish mumkin:

a) sinonimlik munosobati qo'shma gapning 3 turi bog'langan, ergashgan, bog'lovchisiz qo'shma gaplar orasida kuzatiladi. Chunki ayrim munosobatli jumladan shart, payt, sabab – natija, zidlash, o'xshatish chog'ishtirish kabi munosobatlar qo'shma gapning har uchchala turi bilan ifodalanishi mumkin.

-Amur Temur, Husayn Boyqaro va Bobur faoliyatida davlat tafakkuri ustunlik qilgan bo'lsa Ulug'bekka ilm ustunlik qilgan. – (qiyos, chog'ishtirish ergash gapli qo'shma gap.

-Amur Temur, Husayn Boyqaro va Bobur faoliyatida davlat tafakkuri ustunlik qilgan, Ulug'bek faoliyatida esa ilmiy tafakkur ustunlik qilgan. – (esa yordamida bog'langan qo'shma gap).

- Amur Temur, Husayn Boyqaro va Bobur faoliyatida davlat tafakkuri ustunlik qilgan, Ulug'bekda ilmiy tafakkur ustun edi.

b) Sinonimlik munosabati bog'langan yoki ergashgan qo'shma gap turlari orasida yuzaga kelishi mumkin.

-Ahmoqning yuragi og'zida, aqllining tili esa yuragida bo'ladi. **-Bog'lovchisiz bog'langan QG**

-Ahmoqning yuragi og'zida, ammo aqllining tili yuragida bo'ladi. **-Zidlov bog'lovchisi yordamida BQG**

c) Shuningdek sinonimlik EQG larining ayni bir turi orasida ham yuz berishi mumkin.

-Mashina tepalikka zo'rg'a chiqar edi, **chunki** yuk og'ir edi-**sabab bog'lovchilari yordamida bog'langan qo'shma gap. Sabab EQG .**

-Yuk og'ir edi, **shuning uchun** mashina tepalikka zo'rg'a chiqar edi. **-ko'makchili qurilma yordamida bog'langan qo'shma gap-sabab EQG**

Qo'shma gaplar orasidagi bunday ma'nodoshlik bog'lovchili vositalarni almashtirish orqali yuzaga keltiradi.

O'zaro sinonim bo'lgan bunday gaplar uslubiy xoslanishi jihatidan farq qiladi.

Bog'lovchisiz qo'shma gaplar-so'zlashuv uslubi

Bog'lovchili qo'shma gaplar- ko'proq yozma nutq uchun xos

## QO'SHMA GAPLARNING USLUBIYATI

1. Qo'shma gaplarning o'ziga xos uslubiy vositalari bor bularga quyidagilar kiradi.

a) **takror:** ya'ni ma'lum bir gap bo'lagi qo'shma gap qismlarini boshida o'rtasida yoki oxirida takror qo'llanishi mumkin.

-Olamining **xurshidi** kundir, odamning **xurshidi**-ilm.

b) **Antonimlar:** ya'ni zid, qarama-qarshi ma'noli so'zlar qo'shma gap qismlarida qo'llanishi mumkin.

-Bizni **uchrashtirdi** sirli bir shodlik, endi **ayirmoqda** anglab bo'lmas.

c) **Paralellilik(bir xillilik):** ya'ni bir xil tuzulishdagi bir xil qurulishdagi gaplardan foydalanish mumkin.

- Shabnam **tomar**, o'rmon **shivirlar**, bulbullar **sayrar**.

d) Ellipsiya: ya'ni ma'lum bir gap bo'lagi tushurilib qoldirilishi mumkin.

- Ot kishnab **topishar**, odam eslashib. (**topishar**)

e) ohang: ya'ni qo'shma gap qismlari orasida ohangning o'zgarishi gapning uslubiy mazmuniga ta'sir qilishi mumkin.

- Salimjon mashinaga o'tirdi, mashina yurib ketdi. **-payt munosabati**

- Salimjon mashinaga o'tirdi -mashina yurib ketdi.-payt munosabati- **ketma-ketlik+ tezlik munosabati**

**Demak:**Qo'shma gapning uslubiy vazifalari

- takror

- antonimlar

- paralellik

- ellipsiya

- ohang

- ba'zan bir qo'shma gapda uslubni yaratuvchi yuqoridagi vositalar birdan ortiq qo'llanishi mumkin.

Masalan:

- **Xalq** dengizdir, **xalq** kuchdir, **xalq** to'liqdir. **-qismlari uyushgan murakkab qo'shma gap**

Bu yerda **takror** va **paralellik** uslubiy vosita bo'lgan.

- **Obro' kelsa** misqollab kelar, **obro' ketsa** – qadoqlab.(ketar)

Qo'shma gaplarning uslubiy xususiyati shundaki, qo'shma gap turlari uslubiy xoslanishga ega ya'ni:

- **Og'zaki nutqda** qo'shma gaplarning sodda ixcham ko'pincha bog'lovchisiz turidan foydalaniladi.

- **Yozma nutqda** esa qo'shma gaplarning murakkab keng ko'pincha bog'lovchili turidan foydalaniladi.

- **Havola bo'lakli** qo'shma gaplar ko'proq **kitobiy uslub** uchun xos ularga sinonim bo'lgan sodda gaplar esa uslubiy betaraf hisoblanadi.

- **Biriktiruv va zidlov bog'lovchili** qo'shma gaplar ko'proq **rasmiy uslub** uchun xos.

- **Ommabop rasmiy va adabiy uslublarga** ixcham qisqa tuzilgan bog'lovchili qo'shma gaplar hamda bog'lovchisiz qo'shma gaplardan foydalaniladi.

- **Ilmiy uslubda** esa bog'lovchilar yordamida tuzilgan keng murakkab gaplarni ta'lab qiladi.

### MATN HAQIDA MA'LUMOT

1. Ma'lumki so'z birikmasi, so'z qo'shilmasi sodda qo'shma gaplar sintaktik birlik hisoblanadi.

2. Eng yirik sintaktik birlik esa matn hisoblanadi.

3. Matn litsey darsligida 2 ga bo'linadi.

a) mikromatn

b) makromatn

4. Bir necha gaplarning o'zaro gramatik va mazmuniy bog'lanishidan tashkil topgan mazmuniy yaxlitlikka ega bo'lgan qo'shma gaplarga nisbatan yirikroq bo'lgan og'zaki va yozma nutq parchasiga **mikromatn** deyiladi.

5. Bir umumiy mavzu ostida birlashgan bir necha mikromatnlardan tashkil topuvchi butunlik **makromatn** deyiladi.

- Abdulla Qahhorning "O'g'ri" hikoyasi-

6. Matnning eng kichik birligi gap hisoblanadi. Matndagi gaplar ma'lum bir bog'lovchi vositalar yordamida bog'lanadi.

7. Matn tarkibidagi gaplarni bog'lash uchun xizmat qiladigan vositalarga quyidagilar kiradi.

- Bog'lovchilar

- Bog'lovchi vazifasidagi so'zlar

- olmoshlar

- Takroriy bo'laklar

- sinonimlar

Masalan:

Karimjon a'lo o'qish va odobi bilan litseyda katta hurmatga ega. U jamoat ishlarida ham faol qatnashadi.

Bunda **U** olmoshi Karimjon o'rnida kelib 2- gapni 1- gapga bog'lab kelyapti shuning uchun **U** olmoshi matn hosil qiluvchi vosita sanaladi.

**Olti oykim** sher yozmayman, yuragim zada.

**Olti oykim** o'zgalarga tilayman omad,

**Olti oykim** do'stlarim panada,

Istedodim qilar karomat.

Bunda takrorlar ham matndagi gaplarni bog'lovchi vosita, ham uslubiy bo'yoqdorlik hosil qiladi.

-Angladimki olamda **yurt** tanho, **vatan** tanho, band etgan xayolimni tengsiz shul **chaman** tanho.

Bunda takrorlar gap oxirida qo'llanilgan shuningdek bunda matndagi gaplarni bog'lash uchun sinonimlar qo'llanilgan.